



O'ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI

MUZEYLAR: AN'ANA, NOVATSIYA VA RENOVATSIYA INTEGRATSIYASIDA

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN TO'PLAMI



TOSHKENT 2025

Mas’ul muharrir:

Jannat Ismailova, tarix fanlari doktori, professor

Alisher Ismailov, tarix fanlari doktori (DSc), professor

Larisa Levteyeva, tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

To’plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Dilafro’z Karimova, t.f.b. falsafa doktori (PhD), kat.i.x.

Mansur Safayev, kichik ilmiy xodim

Taqrizchilar:

T.f.d., prof. B.V.Xasanov, t.f.n.X.Fayziyev

Mas’ul muharrirlar: J.X.Ismailova, A.F.Ismailov, L.G.Levteyeva; O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi. «Muzeylar: an’ana, novatsiya va renovatsiya integratsiyasida» mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to‘plami. –Toshkent, 2025-yil 18-mart. - 722 b.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi “2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 490-son buyrug‘iga asosan tashkil etildi.

Mazkur to‘plamdan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan «Muzeylar: an’ana, novatsiya va renovatsiya integratsiyasida» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plamida muzeyshunoslik, tarix, arxeologiya, etnologiya hamda muzeylarda innovatsion texnologiyalarni jalb etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o‘rin olgan.

To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi Ilmiy kengashining 2025-yil 07-apreldagi 4-son majlis qarori asosida nashrga (elektron) tavsiya etilgan.

3. Большая Советская Энциклопедия. Том 43. – М.: Государственное научное издательство БСЭ, 1956. – С. 437.
4. Путрик Ю.С. Истории туризма. – М.: Профиздат, 2014. – С. 202.
5. Pfaff A. Heinrich Moser: Ein Lebensbild / Adam Pfaff. – Schaffhausen: [s.n.], 1875; Официальный сайт компании H. Moser&Cie [Электронный ресурс] // Режим доступа: <http://www.h-moser.com/ru/company>.
6. Summary of the Results of Dr. Sven Hedin's Latest Journey in Central Asia (1899-1902). Sven Hedin. The Geographical Journal. Vol. 20, No. 3 (Sep., 1902), pp. 307-315 (9 pages). Published By: The Royal Geographical Society (with the Institute of British Geographers)

BOLTAYEV Bobir Baxtiyorovich

*Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası
dotsenti, t.f.f.d, (PhD)*

O‘ZBEKISTONDA XALQARO TALABLARGA MOS MUZEYLARNI SHAKILLANTIRISH OMILLARI

Annotasiya: Ushbu maqolada 1991 yilda boshlangan va hozirgi kungacha davom etayotgan muzey taraqqiyoti tarixining yangi bosqichi batafsil muhokama qilinadi. Qanday qilib muzeylar rivoji O‘zbekistondagi ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarning aksi emas, balki ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda ma’naviy madaniyatning tiklanish jarayonini muzeylarning o‘z ko‘rgazmalari bilan qo‘shayotgan hissisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, ushbu maqolada muzey sanoatining rivojlanish bosqichlari va amalga oshirilgan ishlar, shuningdek, uning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillarni ochib berishga harakat qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekmuzeyi, profil, ekspozitsiya, fond, ko‘rgazma, saqlash, faollashtirish, standart, omil, rejim, tashkil etish, effekt, sahna, ekspeditsiya, badiiy, statsionar, hunarmand, kolleksiya, dizayner, zaxira, muzeyshunos, saqlash.

Аннотация: В этой статье подробно речь идёт о новом этапе истории развития музеев, начавшийся с 1991 года до современного времени. Как развитие музеев стало не отражением, а неотъемлемой частью социальных и экономических преобразований Узбекистана. Почти уже сегодня невозможно представить процесс возрождения духовной культуры без того вклада, который вносят музеи своими экспозициями. Кроме того, в данной статье сделана попытка раскрыть этапов развития музейной индустрии и проделанной работы, а также факторы, препятствующие ее развитию.

Ключевые слова: Узбекмузей, профиль, экспозиция, фонд, выставка, хранение, активация, стандарт, фактор, режим, организация, эффект, пейзаж, экспедиция, художественный, стационарный, ремесленник, коллекционер, дизайнер, заповедник, музеолог, сохранение.

Annotation: This article describes in detail a new stage in the history of the development of museums, which began from 1991 to the present time. How the

development of museums became not a reflection, but an integral part of the social and economic transformations of Uzbekistan. Almost today, it is impossible to imagine the process of reviving spiritual culture without the contribution that museums make with their expositions. In addition, this article attempts to reveal the stages of development of the museum industry and the work done, as well as the factors that hinder its development.

Key words: *Uzbekmuseum, profile, exposition, fund, exhibition, storage, activation, standard, factor, mode, organization, effect, landscape, expedition, artistic, stationary, artisan, collector, designer, reserve, museologist, preservation.*

O'zbekistonning mustaqil suveren, demokratik davlat sifatida tiklanishi va rivojlanishi jarayonida ro'y berayotgan ulkan tarixiy o'zgarishlardan dalolat beruvchi tarixiy obidalarni bugungi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash haqida g'amxo'rlik qilish zarur. Muzey fondlarini saqlashda har xil guruhlardagi harorat va namlik sharoitlarini hisobga olgan holda muzey ashyolarini saqlash uchun eng samarali sharoitlarni yaratishga, havoni ifloslantiruvchi jismlardan himoya qilishga, to'g'ri yoritishga, va nihoyat, muzey ashyolarini mexanik shikastlardan himoya qilishga, shu jumladan, zarur hollarda muzey fondlarini muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratish lozim. Zamonaviy muzey ishini jahon va xalqaro tashkilotlar darajasida tashkil etishda ilmiy yordamchi materiallardan foydalanish katta ahamiyatga ega. U maketlar, suratlar, xaritalar, chizma va rejalar, zamonaviy texnika vositalari, audio va video jihozlar orqali tomoshabinga muzey ekspozitsiyasi haqida hikoya qiluvchi voqealarni yanada chuqurroq to'liq va yorqinroq his etishga yordam beradi. Tarixiy-madaniy yodgorliklarni qayta tiklash va rivojlantirishda, hamda katta kuchga ega bo'lgan ma'naviyatni insonlarning ongiga singdirishda muzeylarning o'rni beqiyos. Darhaqiqat, O'zbekistonda jahon madaniyatining o'ziga xos an'alarini o'zida jamlagan hamda saqlashga intilayotgan YUNESKO kabi nufuzli tashkilot himoyasiga olingan qadimiy Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi keng nishonlanishi bu fikrimizning yorqin dalili desak aslo xato qilmaymiz[1,223- bet]. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekistondagi tarixiy obida va qadimiy ziyoratgohlarni sanab o'tish juda ham qiyin bo'lgan davlatlar sirasiga mansubdir. Shu kunlarda olimlarimiz tomonidan respublikamizdagi muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida muzeylar faoliyatini rivojlantirishning maxsus bir qancha ilmiy tamoyillari ishlab chiqildi [2, 24-27-betlar] .

O'zbekiston Respublikasidagi barcha muzeylarning asosiy qismini o'lkashunoslik, tarix va memorial yo'nalishdagi muzeylar tashkil etadi. Respublika muzeylari orasida Markaziy Osiyoning qadimiy shaharlarida joylashgan uchta yirik muzey-qo'riqxonalar mavjud. Bular Samarqand, Buxoro va Xiva tarixiy-me'moriy muzey-qo'riqxonalaridir. Muzeylar tarmog'iga shuningdek, uchta yirik san'at muzeylari ham kiradi: Tasviriy va xalq amaliy san'atining ajoyib kolleksiyasiga ega

Davlat san'at muzeyi; Rus va o'zbek xalqining ilg'or tasviriy san'atining noyob kolleksiyalari, Qoraqalpog'iston xalq amaliy san'atining nodir kolleksiyalari mavjud Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat xalq amaliy san'ati muzeyi va I.V.Savitskiy nomidagi Davlat san'at muzeyi. Samarqand muzey-qo'riqxonasining eng qiziqarli kolleksiyasini ta'kidlash joiz. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Farg'ona, Jizzax viloyatlari va Qo'qon shahri o'lkashunoslik muzeylarida ham san'at bo'limlari tashkil etilib, faoliyat yuritib kelmoqa. Respublikaning har bir viloyatida o'lkashunoslik muzeylari mavjud bo'lib, ular Toshkent viloyatining bir qator sanoat shaharlari – Angren, Olmaliq, Chirchiqda ham faoliyat ko'rsatmoqda. O'lkashunoslik muzeylarida tabiat bo'limlari ochilgan bo'lib, ularning faoliyatida O'zbekistondagi yagona tabiiy fanlar muzeyi – O'zbekiston Davlat tabiat muzeyi yordam va ko'mak berib kelmoqda. Yurtimizdagi deyarli barcha O'lkashunoslik muzeylarida tarix bo'limlari yetakchi rol o'ynaydi, ularda yurtimiz tarixiga oid eksponatlar to'planadi, tadqiq qilinadi va targ'ibot ishlari bilan doimiy ravishda uzviy bog'langan holda olib boriladi. 1992 yilda M.T.Oybek nomidagi O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi O'zbekiston tarixi davlat muzeyiga aylantirildi [6, b.1-4]. Uning tarkibiga sobiq Xalqlar do'stligi muzeyi, antiqa buyumlar muzeyi va V.I.Lenin nomidagi markaziy muzeyning Toshkent filiali kiritildi. Bugungi kunda vatanimiz tarixining eng qadimiy davriga tegishli boy eksponatlar jamlangan markazlardan biri, O'zbekiston tarixi davlat muzeyidir [3,34-35-betlar].

O'zbekistondagi bir qator boshqa muzeylar qatori ushbu muzeyning ham ko'plab eksponatlari jahon miqyosida shuhrat qozongan. Ushbu muzeylarda bugungi kecha –kunduzda mablag'larni ilmiy jamg'arish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etish masalalari katta amaliy ahamiyatga ega. Ko'pincha tarixning tirik guvohlari, o'tmishning bebaho boyliklari saqlanishining dalillari muzey ashyolarining to'g'ri ilmiy hisob-kitoblari, ularni to'g'ri tasniflash, ilmiy xolislik, tarixiylik nuqtai nazaridan talqin qilish, zamonaviy ilmiy yondashuvlarga bog'liq bo'lmoqda.

Mustaqillik davrida inson bilimi va faoliyatining turli sohalarini aks ettiruvchi yangi muzeylar paydo bo'la boshladi. O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlariga muvofiq Temuriylar tarixi davlat muzeyi (1996 r.) [4, 5-bet]. Toshkentdagi Olimpiya shon-shuhrati muzeyi (1996 r.) tashkil etildi [5, 8-12 b]. Ushbu muzeylar tashkil etilganidan keyingi bir necha yil ichida doimiy eksponat va ekspozitsiyalar ochildi, noyob eksponatlar kolleksiyalari to'plandi, keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi, tashrif buyuruvchilar soni yildan-yilga ortib borayotganligi kuzatildi. Mustaqillik yillarida Jizzax viloyatida ham tarixiy muzeylar, Navoiy shahrida tarixiy-o'lkashunoslik muzeyi, Samarqand shahrida Alisher Navoiy memarial muzeyi, Buxoro shahrida al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, A.Fitrat, F.Xo'jayev uy-muzeylari, Qo'qonda esa Muqimiy nomidagi shahar muzeylari ochildi. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Xalq amaliy san'ati muzeyi, O'zbekiston davlat san'at muzeyi, Samarqand, Buxoro, Xiva muzey-qo'riqxonalarini rivojlantirish va moliyalashtirish bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqildi va amalga oshirish choralari ko'rildi.

Mustaqillik yillarida jami 35 ta yangi muzey tashkil etilgan bo'lib bundan tashqari, 1998–1999 va 2001–2018 yillarda muzeylar sonining sezilarli o'sishi

kuzatish mumkin [7, b.31–33].

O‘zbekiston Respublika “O‘zbekmuzeyi” jamg‘armasi Buxoro muzey-qo‘riqxonasining muzeyga tashrif buyuruvchilar, birinchi navbatda, xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun mo‘ljallangan bir qancha kichik formatdagi ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlariga homiylik qildi. Bir paytlar viloyatdan olib chiqib ketilgan, hozirda yaqin va uzoq xorijdagi, birinchi navbatda, Rossiya Federatsiyasining qator muzeylarida saqlanayotgan madaniy boyliklarni aniqlash ishlari olib borildi. Respublika Tashqi ishlar vazirligi ko‘magida O‘zbekiston muzeylari ekspozitsiyalarini boyitish maqsadida eng noyob buyumlarning nusxalarini tayyorlash masalalari hal etilildi. Muzey ishida barcha tarixiy davrlar, ayniqsa, mustaqillik davriga oid kolleksiyalarni tizimli ravishda ilmiy jihatdan o‘zlashtirish muhim o‘rin tutadi. Ilmiy ekspeditsiyalar va ko‘rgazmalar o‘tkazish, muzey boyliklarini sotib olish uchun mablag‘lar nihoyatda kam bo‘lsa-da, muzeylar o‘z kolleksiyalarini to‘ldirish imkoniyatlarini ishga solmoqda. Arxeologiya, etnografiya yo‘nalishlariga tegishli zamonaviy voqealarni hujjatlashtirish bo‘yicha dala tadqiqotlari olib borilmoqda, hunarmandlarga oid rassomlarning yangi asarlari ham muzey fondlariga uni boyitish maqsadida sotib olinmoqda . Birgina 1998 yilning o‘zida Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimidagi muzeylarga 7544 ta muzey qiymatidagi ashyolar kelib tushgan. 1998 yilda birgina Buxoro muzey-qo‘riqxonasi kolleksiyalariga Poykend manzilgohidan 4185 ta arxeologik va numizmatik ashyolar olib kelib qabul qilib olingan bo‘lib, ular orasida kushon va temuriylar tangalari borligi, alohida kishilarda qiziqish uyg‘otadi. Shahar va umuman viloyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tizimida muzeylarning ahamiyati sezilarli darajada o‘zgardi. Iqtisodiyotni markazlashtirish sharoitida turizm industriyasining real foydalari aholining ayrim guruhlarini iqtisodiy faoliyatini qayta yo‘naltirishga yordam berdi. Muzey asoschilari orzu qilgan an‘anaviy hunarmandchilik va xalq amaliy san‘atining tiklanishi dolzarb vazifalar doirasiga o‘tib, haqiqatga aylana boshladi [8,42- bet]. Muzey madaniy-tarixiy muhitning tiklanishiga asos va bu jarayonning katalizatoriga aylandi. Muzey tomonidan to‘plangan mablag‘lar “madaniy ishlab chiqarish”ga jalb qilinib, uni kengaytirish uchun ishlatila boshlandi, yaratilgan huquqiy asoslar esa amalga oshirilgan kaspiy faoliyatning kafolati bo‘lib xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida muzeylardagi vaziyat tubdan o‘zgardi, bir tomondan, muzey faoliyatining asosiy natijalariga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, muzey rivojlanishining ushbu bosqichini oldingi bosqichlar bilan taqqoslash imkoniyatini berdi. Agar yangi iqtisodiy shart-sharoitlar joriy etilgan dastlabki yillarda asosan kichik mahalliy muzeylar (100 kv.m.gacha ko‘rgazma maydoni) ochilgan bo‘lsa, 1991 yildan keyin keng ko‘lamli ko‘rgazma obyektlarining rolini oshirishning aniq tendentsiyasi paydo bo‘la boshladi. Bu yuqorida aytganimizdek, muzeyning ma’naviy-ma’rifiy muassasa sifatida ko‘rishda davom etganlarni ishonchini yana bir karra oshirdi va oqladi. Demak, hujjatlarni taqdim etishda ba’zi rasmiyatchilik belgilarining namoyon bo‘lishi, ko‘rgazmalarning yetarli darajada tomoshabin emasligi va natijada ularning past mashhurligi, uni maishiy majmualar bilan to‘ldirish zarurati, ayniqsa, muzeyda arab xattotlik kurslarining ochilishi munosabati bilan keyingi yillarda nafaqat mutaxassislar – tarixchilar,

sharqshunoslar, balki keng jamoatchilik uchun yanada jozibador qilish mumkinligini ko'rsatdi. Shunday qilib, taqdim etilayotgan eksponatlar mazmunini idrok etish va baholashga qodir tashrif buyuruvchilar salmog'i kengaytirildi[f. m- 348 . jild 1. ish. 68, v 253].

Xalq hunarmandchiligiga bag'ishlangan yangi ko'rgazmalar, muzeylar, ustaxonalar tashkil etilayotgani hunarmandlarning bir-biri bilan, o'z mehnatini qadrlay oladigan, o'z e'tibori bilan qadimiy kasblar nufuzini qo'llab-quvvatlay oladiganlar bilan uchrashadigan, muloqot qiladigan maskanlarga aylantirdi.[10, 4b] . Bu haqda quyida batafsil to'xtalib o'tamiz, ammo hozircha 1991-yilda boshlangan muzeylar tarixidagi yangi bosqich haqiqatan ham o'ziga xosligini ta'kidlamochimiz. Muzeylarning rivojlanishi ko'zgu emas (ilgari shunga intilishgan), balki mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda ma'naviy madaniyatning yuksalish jarayonini muzeylarning o'z ko'rgazmalari bilan qo'shayotgan hissisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ammo muzeyning madaniy faoliyatini faollashtirishni faqat diniy an'analarni tiklash bilan bog'lash noto'g'ri bo'ladi, garchi busiz Sharq me'morchiligi, san'ati, adabiyoti, falsafiy tafakkuri va hattoki xalq hunarmandchiligining o'tmishini ham, kelajagini ham tasavvur qilish qiyin. Davlatimiz rahbarining maxsus qarori qabul qilingandan so'ng, muzey yodgorliklarni ta'mirlash, yangi doimiy eksponatlar va ko'rgazmalar ochish, ularni xalqaro standartlarga javob beradigan badiiy dizaynini shakllantirish, obidalarni rekonstruksiya qilish, nashriyot faoliyatini faollashtirish, muzey-qo'riqxonalarni kompyuterlashtirish bo'yicha yangi vazifa va uni 2010 yilgacha rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan edi.Xuddi ana shu dasturlar asosida muzey daromad manbalaridan birini nashriyot faoliyatini keng rivojlantirishda ko'rishimiz mumkin.

Masalan: kataloglar, ilmiy ishlar, sayyohlar orasida talab katta bo'lgan ommabop adabiyotlar nashr etish o'z navbatida bukletlar va yo'l ko'rsatgichlarini ishlab chiqish shular jumlasiga mansubdir !. Hozirgi kunda respublikamizning juda ko'p muzeylari homiylarni jalb qilishga, xalqaro tashkilotlardan grantlar yutib olishga, yangi pullik xizmatlar ko'rsatishga harakat qilib kelmoqdalar[11, 56-58-betlar].Albatta vaqt oliy hakam buning ham samarasi albatta ijobiy o'z echimini topadi deb o'ylaymiz.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda maqolada ko'tarilgan ko'plab muammolar o'z yechimini kutmoqda va kelgusida keng qamrovli, fanlararo va xalqaro tadqiqotlar mavzusi bo'lishi mumkin. O'zbekistondagi barcha muzey binolarida, ashyolarni saqlash va o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, eksponatlarni loyihalash va badiiy bezash, kompyuter va orgtexnika bilan ta'minlash kabi o'lchamlar bo'yicha barcha xalqaro standartlarga javob beradigan sharoit yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Almeev R.V. O'zbekiston muzeylari va ularni rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy istiqbollari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – P. 287.
2. Almeev R.V. Buxoro muzey shahri. – Toshkent: Fan, 1999. – P. 129 .

3. Садыкова Н.С. Музей истории народов Узбекистана им. М.Т.Айбека // Наука в Узбекистане. Т.П. Общественные науки. Ташкент:Фан, 1974.-(Общ стр.168).Стр-34-35,
4. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об организации мероприятий по созданию Государственного музея истории Темуридов», от 14 марта 1996 г.. <https://lex.uz/docs/397515>
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Toshkent shahrida Olimpiya shon-shuhrati muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori /1996 y. <https://lex.uz/docs/473895>
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21 apreldagi “O‘zbekiston tarixi muzeyi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori 1992 g. <https://lex.uz/docs/424564>
7. Альмеев Р.В. Из истории создания и развития Бухарского музея заповедника // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 2000. – № 1. – Стр.83.
8. Альмеев Р.В. Пайкендский семисвечник // Moziydan sado. –№3.Тошкент, 2010.-(Общ стр.65), стр-42.
9. Вухоро muzeyi arxivi . F. M- 348 . yig‘ jil 1. ish. 68, v 253.
10. Гребенюк И. Музей кузнечных ремесел // Народное слово. 1993. 8 января. -С. 4.
11. Sodiqova N.S. O‘zbekistonda muzey ishi. Toshkent: Fan, 1975. – В.300 .

АБДУЛЛАЕВА Нигора Санжаровна

*Америка технологиялар университети ректор маслахатчиси
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),*

ШАРҚ ДАВЛАТ МУЗЕЙИДАГИ ЎЗБЕК КАШТАЧИЛИК ВА ЗАРГАРЛИК БУЮМЛАРИ

Аннотация: Ўзбекистоннинг бой маданий мероси нафақат юртимиздаги музейлар тўпламларида балки дунёнинг кўплаб нуфузли музейлари ва шахсий коллекцияларидан ҳам жой олган. Мақолада Ўзбекистон маданий меросининг кўплаб намуналари сақланадиган Москвадаги Шарқ давлат музейи коллекцияларидан жой олган каштачилик ва заргарлик буюмларининг тавсифи келтирилиб, уларнинг музейда тўпланиши йўллари ҳақида мулоҳазалар берилган.

Калит сўзлар: Шарқ давлат музейи, каштачилик, заргарлик, маданий мерос, сўзана, артефакт.

Қадимги тош давридан бугунги замонга қадар тарихий тараққиёт жараёнида Ўзбекистон ҳудудида моддий ва бадиий маданиятнинг ўзига хослиги, хусусиятлари ва қонуниятларини акс эттирувчи кўплаб осори атиқалар яратилган. Ўзбекистоннинг ушбу тарихий-маданий мероси ғоят бой ва ранг-барангдир. Унинг катта қисми Ўзбекистондаги давлат музейлари, илмий-тадқиқот институтлари тўпламлари, галереялари ёки архивларида сақланади.

MUNDARIJA

BIRINCHI SHO‘BA: MUZEYSHUNOSLIKNING RIVOJLANISH OMILLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR	6
ISMAILOVA J. X. MARKAZIY OSIYO ME‘MORCHILIGI EVOLYUSIYASI KASHFIYOTCHISI	6
DAVLATOVA S. T. MUZEYSHUNOSLIKDA MADANIY-MA‘NAVIY MEROS MASAASI: TARIX VA TAHLIL	10
ДАЛАЕВА Т.Т. СОВРЕМЕННЫЕ МУЗЕИ: ПРОИЗВОДСТВО И ТРАНСЛЯЦИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО ЗНАНИЯ	15
YUSUPALIYEVA D. K. MUZEYLAR FAOLIYATIDA ZAMONAVIY RIVOJLANISH JARAYONLARI	18
ЛЕВТЕЕВА Л.Г. РАБОТА ГМИУ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ – ВАЖНАЯ СФЕРА КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ СТРАНЫ	22
ДОСПАНОВ О. Т. ИГОРЬ САВИЦКИЙ: ВКЛАД В ИСКУССТВО И КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ КАРАКАЛПАКСТАНА (к 110-летию со дня рождения)	31
KURYAZOVA D. T. TARIXIY-MADANIY MEROS TARG‘IBOTIDA KOMMUNIKATSION TIZIMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	38
MUKHAMEDOVA M. S. RESEARCH OF TOURISM IN THE ACTIVITIES OF TRAVELERS IN UZBEKISTAN IN THE LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES	45
BOLTAYEV B. B. O‘ZBEKISTONDA XALQARO TALABLARGA MOS MUZEYLARNI SHAKILLANTIRISH OMILLARI	48
АБДУЛЛАЕВА Н. С. ШАРҚ ДАВЛАТ МУЗЕЙИДАГИ ЎЗБЕК КАШТАЧИЛИК ВА ЗАРГАРЛИК БУЮМЛАРИ	53
АХМАТОВ А. BUHOROДА ADIBLAR MUZEYI OCHILADIMI ?	58
МИРАЛИЕВА Ш.А., АХУНЖАНОВА У. З. ТЕМУРИЙЛАР ТАРИХИ ДАВЛАТ МУЗЕЙИДАГИ АЛИШЕР НАВОИЙ ВА АБДУРАХМОН ЖОМИЙ МЕРОСИ ХУСУСИДА	62
БОБОЖОНОВ Ш. БУХОРО МУСИҚАСИ УЙ МУЗЕЙИ ЭТНОТУРИЗМДАГИ ЯНГИ САЙЁҲЛИК МАНЗИЛИ СИФАТИДА	67
ХОДЖАЕВ Б. МУЗЕЙНИНГ ҲАЛҚАРО АЛОҚАЛАРИ ВА ТУРИЗМ РИВОЖИДАГИ ЎРНИ	72
BADALOV A., MAMMADOV E. TRADE AND CULTURAL RELATIONS OF ATROPATENE AND CAUCASIAN ALBANIA WITH THE MIDDLE EAST	79
КАСИМОВА Ш. ЗАМОНАВИЙ МУЗЕЙШУНОСЛИҚДА БРЕНДИНГ ТУШУНЧАСИ	83
ISAKOVA M. B. MUZEYSHUNOSLIKNING RIVOJLANISH OMILLARI, MUAMMO VA YECHIMLAR	88
O‘ROLOVA M. M. URUSH YILLARIDA AYOLLARNING MAORIF, ILM-FAN VA MADANIYAT RIVOJIDAGI O‘RNI	93
IMOMOV M. P., ZARIPOVA M. P. MUZEYSHUNOSLIKNING RIVOJLANISH OMILLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR	99
МУМИНОВ И. Т. ЦИФРОВОЙ ИСТОРИЧЕСКИЙ АРХИВ ФОНДА ШАРАФА РАШИДОВА КАК УДОБНЫЙ ИНСТРУМЕНТ ПОИСКА МАТЕРИАЛОВ ПО ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА СОВЕТСКОГО ПЕРИОДА	106
САЛИХАНОВА Г. Н. МУЗЕЙЛАР ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ	110